

## NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLARNI QO'LLAB-QUVVATLASH JAMG'ARMASI

Iriskulov Temur Xayrulla o'g'li

*Toshkent Moiya Instituti*

*Buxgalteriya hisobi va audit fakulteti talabasi*

Bugungi kunda Respublikamizda Sog'liqni saqlash vazirligi huzurida Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tashkil etilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-avgustdagi F-5006-son farmoyishi bilan tashkil etilgan Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirishga qaratilgan takliflarni tayyorlash bo'yicha komissiya tomonidan nogironlikni barvaqt aniqlash va oldini olish, nogironligi bo'lgan shaxslarga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish, ularni kasbga o'qitish va ishga joylashtirish sohasidagi ishlarning ahvoli kompleks va chuqur o'rganildi.

Mazkur jarayonda aholining keng qatlamlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari, shuningdek, xalqaro va xorijiy tashkilotlar vakolatxonalarini yuqori faollik va daxldorlik hissini namoyon qildilar.

O'tkazilgan kompleks o'rganish, aholi bilan ochiq va to'g'ridan to'g'ri muloqot yakunlari bartaraf etish yuzasidan ta'sirchan choralarni tezkor ko'rishni talab etuvchi qator tizimli kamchiliklar va muammolarni aniqlash imkonini berdi.

Hamkorlikdagi sa'y-harakatlar bilan nogironligi bo'lgan shaxslarning turmush darajasi va sifatini yanada yaxshilash, ularga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish, bunday shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarishga, jamiyatdagi faol pozitsiyasini shakllantirishga ko'maklashish yuzasidan aniq takliflar ishlab chiqildi. Yani jamg'armani tuzishdan maqsad

- nogironligi bo'lgan shaxslarning ahvolini yaxshilash;
- tibbiy-ijtimoiy yordam berish va rehabilitatsiya sifatini oshirish
- protez-ortopediya buyumlari va texnik rehabilitatsiya vositalarini ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishga va texnologik yangilashga ko'maklashish.

Jamg'arma mablag'lari quyidagi manbalar hisobidan shakllantiriladi:

- nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun belgilangan tartibda solinadigan jarimalar summasining 10 foizi miqdoridagi ajratmalar;

- nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish joylarining eng kam miqdorini yaratishga doir mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari bajarilmaganligi uchun belgilangan tartibda solinadigan jarimalar summasining 10 foizi miqdoridagi ajratmalar

- yuridik va jismoniy shaxslarning, shuningdek, xalqaro tashkilotlarning homiylik xayriyalari hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Jamg'armaning mablag'lari quyidagilar bilan ta'minlanadi:



- nogironligi bo'lgan shaxslarni protez-ortopediya buyumlari, texnik reabilitatsiya vositalari va kreslo-aravachalar bilan ta'minlashni;
- tashkilotlarda protez-ortopediya buyumlari va texnik reabilitatsiya vositalarini ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnologik yangilash loyihalarini amalga oshirishni;
- nogironligi bo'lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish, organizmning izdan chiqqan yoki yo'qolgan funktsiyalarini tiklash va ularni kompensatsiya qilish, hayot faoliyati cheklanganligini bartaraf etish chora-tadbirlarini amalga oshirishni;
- nogironligi bo'lgan shaxslarga jamiyat hayotida boshqa fuqarolar bilan teng ishtirok etish imkoniyatlarini yaratishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishni;
- nogironligi bo'lgan shaxslar uchun yo'naltirilgan ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari faoliyatiga ko'maklashishni;
- nogironligi bo'lgan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan ish o'rinlarini tashkil etish maqsadlarini moliyalashtirish uchun sarflanadi.

2022 yil 1 yanvardan boshlab Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga qabul qilgan ish beruvchilarga (byudjet tashkilotlari, davlat korxonalari, ustav jamg'armasi (kapitali)da davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslar bundan mustasno) har bir xodim uchun 6 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 1,5 baravari miqdorida subsidiya beriladi. Bunda, nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga qabul qilgan tashkilotga subsidiya berishda Yagona milliy mehnat tizimida ro'yxatdan o'tkazilgan mehnat shartnomasi asos hisoblanadi. Natijalar shunga olib keladiki Respublikadagi har bir qatlamni ish bilan taminlash, nogironlarni ham ijtimoiy, ham ma'nan qo'llab quvatlashdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 01.12.2017 yildagi PF-5270
1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori 22 dekabr 2021 yil "Правда вастока"
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi PF-26-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.11.2021-y., 06/21/26/1111-son